

**TINCHLIK VA ADOLAT YO‘LIDA XALQARO OMMAVIY
HUQUQNING AHAMIYATI VA QOIDALARI**

Xudoyqulova Mehriqul Shoynazar qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

E-mail: mehrigulxudoyqulova022007@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada qadimgi davr xalqaro ommaviy huquqi va hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqi o‘rtasidagi farqlar, shuningdek xalqaro ommaviy huquqining xalqaro maydonda tinchlik va adolatni ta’minlash uchun naqadar muhim ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xalqaro ommaviy huquq, martens moddasi, xalqaro sud, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), yuridiksiya, jus gentium.

XXI asr - globalizm va raqamli texnologiyalar asri bo‘lib, xalqaro munosabatlar yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Xalqaro ommaviy huquq esa, aynan shu o‘zgarishlarga moslashib, tinchlik va adolatni ta’minlashda strategik vositaga aylangan. Har tomonlama o‘zgarayotgan dunyo sharoitida xalqaro huquq normalari zamonaviy global tahdidlar - kiberxavfsizlik, terrorizm, pandemiyalar va iqlim o‘zgarishi kabi muammolarga javob berish uchun tezkorlik va samaradorlik bilan yangilanmoqda.

Avvalo, xalqaro ommaviy huquq bu - tinchlik va hamkorlikni ta’minlash maqsadida xalqaro huquq subyektlari munosabatlarini tartibga soluvchi normalar tizimidir. Xalqaro huquq subyektlari esa, asosan ustidan hech qanday hukmronlik bo‘lmagan suveren davlatlardan, xalqaro va davlatlararo tashkilotlar, mustaqillik uchun kurash olib borayotgan millatlar va xalqlardan iborat. Bundan kelib chiqadiki, xalqaro huquq g‘oyat keng va turli tarmoqlarni o‘z ichiga oluvchi alohida huquqlar tizimi hisoblanadi. Asrlar davomida xalqaro huquq **jus gentium**

nomi bilan ma'lum bo'lgan. XVII asrning o'rtalariga kelib, ingliz olimi Zech «jus gentium» o'rniga yanada aniqroq ibora - «jus inter gentes» (xalqlar o'rtasidagi huquq) ni qo'llashni taklif qiladi¹. Xalqaro huquq atamasi nomi esa shundan kelib chiqqan.

Hozirgi kunda xalqaro ommaviy huquq global munosabatlarda tinchlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va davlatlararo nizolarni hal qilishda asosiy vosita hisoblanadi. U zamonaviy tahdidlar – kiberxavfsizlik, terrorizm, ekologik muammolar va global pandemiyalar kabi yangi vazifalarga javob beradi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT va Xalqaro Sud, bunday muammolarni hal qilishda markaziy rol o'ynaydi. Shuningdek, xalqaro ommaviy huquq nafaqat xalqaro munosabatlarda adolat va tinchlikni ta'minlaydi, balki davlatlararo hamkorlikni rivojlantiradi, xalqaro shartnomalar asosida global barqarorlikka hissa qo'shadi.

Agarda biz hozirgi kunda mavjud bo'lgan xalqaro ommaviy huquq va qadimgi xalqaro ommaviy huquq o'rtasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, xalqaro huquqning kelib chiqishi qadimgi davrlarda qabila munosabatlarning parchalanishi va birinchi davlatlarning shakllanish paytida vujudga kelgan. O'sha paytda qadimgi odamlar allaqachon nasllararo va qabilalararo munosabatlarda ma'lum tajribaga ega, urf-odatlarida mustahkamlangan ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ishlab chiqilgan edi. Rivojlanish jarayonida ushbu qoidalar xalqaro huquqqa aylandi va davlatlarning paydo bo'lishi bunga turtki bo'ldi. Davlatlar o'rtasida turli xil iqtisodiy, harbiy va shunga o'xshash masalalar yuzasidan aloqalarning mavjudligi ham bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda, asosan, Rim, Misr, Bobil kabi davlatlari o'rtasidagi munosabatlar

¹ <https://drive.google.com/file/d/1okpdDmz0gyndIElxZASvZcWNdlOJq7du/view>.
SJIF: 5.051

bo‘lishi mumkin. Misol uchun: hozirgi kunda mavjud bo‘lgan eng qadimgi xalqaro huquqiy hujjatlardan biri bu – eramizdan avvalgi 3100-yillarda Mesopatamiyaning Lagash va Umma shaharlari hukmdorlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Shartnomaning mazmuni esa quyidagicha: ushbu shartnoma davlatlar o‘ratsidagi mavjud chegaralarni tasdiqlagan tomonlar esa nizoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish majburiyatini olganlar. Qasam ichish va xudolarga murojaat qilish shartnomani bajarish kafolatlari bo‘lib xizmat qilgan. Shumer tilida yozilgan bu shartnoma matni toshga o‘yib yozilgan². Bu masalada eng ajablanarlisi shunndan iboratki, biz bilgan eng qadimgi xalqaro kelishuvlarda biz zamonaviy xalqaro huquqiy amaliyotning ko‘plab elementlarini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun: hududiy mojaro, hakamlik sudi, nizo ishtirokchilaridan biri uchun bahsli hudud ustidan suverenitetni tan olish kabilardir.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi o‘z ta’sir doirasiga barcha davlatlarni oladi. Shuningdek xalqaro huquqning individga nisbatan ham munosabati o‘zgardi. Hozirgi zamon xalqaro huquqida normalar davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi tarmog‘i ham mavjud. Qadimgi xalqaro huquqdan farqli ravishda hozirgi kunda individ ham xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, tan olishimiz joiz bo‘lgan eng hozirgi zamon xalqaro huquqining eng katta yutuqlaridan biri bu uning urushlardan voz kechganligi deyishimiz mumkin. Negaki, qadimgi zamon xalqaro huquqida urush turli davlatlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishning birdan-bir yo‘li, huquqiy vositasi deb hisoblangan. Masalan, XX asrning boshlaridayoq taniqli olim F. F. Martens shunday deydi: ”urush hozirgacha xalqaro nizolarni hal qilishning birdan-bir yo‘li bo‘lib qolmoqda”. Shu bilan birgalikda, uning xalqaro gumanitar

² <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/qadimgi-sharqda-xalqaro-munosabatlar-va-diplomatiya>.
SJIF: 5.051

huquqni rivojlantirishga qo'shgan hissasi sifatida eng ko'p uning "Martens moddasi"³ deya nomlangan ishlari yodga olinadi. Bu ishi esa quyidagi gaplari orqali uning inson huquqlarini va tinchlikni ta'minlashdagi ulkan xizmatlaridan darak beradi, ya'ni, "fuqarolar va jangchilar o'rnatilgan odatlardan, insonparvarlik tamoyillaridan va jamoat vijdoni talablaridan kelib chiqqan xalqaro huquq tamoyillari himoyasi va hokimiyati ostida qoladilar" deya fikr bildirgan. Biroq, urushga bo'lgan munosabat Birinchi jahon urushidan so'ng uzil-kesil o'zgardi. Ammo, barchamizga ma'lumki, bu urushlarning yakuni topdi degani emas. Ikkinchi Jahon urushining kelib chiqqanligi bunga isbot bo'la oladi. Shu bilan birgalikda aynan shu Ikkinchi jahon urushi sababli ham dunyo mamlakatlari tinchlikning, avvalo tinchlikparvar xalqaro siyosatning qadriga yetishdi.

Xalqaro ommaviy huquqning eng muhim vazifalaridan biri - davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni qonuniy asosda tartibga solish orqali global tinchlikni ta'minlashdir. Ushbu huquq sistemasi davlatlararo nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga, zo'ravonlik va qurolli to'qnashuvlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababli xalqaro ommaviy huquq global xavfsizlikning poydevori hisoblanadi. Negaki, barchamizga ma'lum 1945-yil 24-oktabr sanasida dunyo mamlakatlari kelishgan holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ni tashkil etishdi va unga a'zo davlatlar uning rezolutsiyasini qabul qilishdi. Unga ko'ra turli xil agressiyalar, qurolli to'qnashuvlar BMT subyektlari orasida noqonuniy deya topildi. BMT Ustavi va boshqa xalqaro hujjatlar xalqaro huquqning tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilish kabi asosiy maqsadlarini belgilab berdi. Xalqaro ommaviy huquq

³ <https://academic.oup.com/chinesejil/article/21/1/55/6516405>.

davlatlararo munosabatlarda do'stlik, adolat va tinchlik prinsiplari asosida barqarorlik yaratadi.

Hozirgi davr xalqaro ommaviy huquqida qadimgi davr xalqaro huquqida bo'lmagan ko'plab yangi tarmoqlar vujudga kelgan. Bular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: xalqaro havo huquqi, xalqaro ekologik huquq, xalqaro yadro huquqi, xalqaro fazo huquqi kabi. Ushbu tarmoqlar orasidan biriga to'xtaladigan bo'lsak, xalqaro yadro huquqi eng dolzarblaridan biri hisoblanadi. Negaki, 1945-yil 6-avgust kuni dunyoni larzaga solgan Yaponiyaning Xirosima shahriga Aqshning yadro bombasini tashlaganligi sababli shunday holatlarning oldini olish uchun uchun ushbu tarmoq vujudga kelgan. Bu hozirgi zamon xalqaro huquqining inson huquqlarini himoya qilishga qaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinganligi ham bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning naqadar kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash xalqaro hamjamiyatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Buni BMT Nizomining 1-modda 1-bandida tashkilotning vazifasi sifatida belgilanganligi tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Nizomning asosiy tamoyillaridan biri shuni ko'rsatadiki, "barcha a'zolar xalqaro tinchlik va xavfsizlik hamda adolat xavf ostiga qo'yilmasligi uchun o'zaro xalqaro nizolarini tinch yo'l bilan hal qilishlari kerak" (2-modda). Bu tamoyil Xalqaro Sudning roli va uning yurisdiksiyasini tan olishning muhimligini asoslash uchun mustahkam asos yaratadi. Yurisdiksiya sudlar va sud organlari mansabdor shaxslari tomonidan qaror chiqarish va ishlarni ko'rib chiqish vakolatini anglatadi. Shu sababli, agar biror bir sud yoki sudya biror ish bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lmasa, uning qavul qilgan qarori yuridik

ahamiyatga ega emasligi ko'rsatadi. Shu o'rinda yuridiksiya⁴ga nega to'xtalib o'tganimizga keladigan bo'lsak, sudga murojaat qilayotgan davlat sudning yuridiksiyasini tan olgani bilan ikkinchi tomon tan olmasa, xalqaro sud tomonlar uchun majburiy ahamiyatga ega qaror qabul qila olmaydi. Bu shuni anglatadiki, har ikki tomon ham sudning yuridiksiyasini tan olishi kerak, aks holda, xalqaro sudning bu masala yuzasidan qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Bundan holatlarga misol sifatida quyidagi holatni ko'rsatishimiz mumkin: 2017-yil Ukraina Rossiyaning xalqaro terrorizmni moliyalashni taqiqlash va barcha shakllarda irqiy diskriminatsiyani bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyalarni buzishda ayblab, xalqaro sudga murojaat qildi⁵. Ukraina Rossiyaning Qrimda etnik ukrainlar va qrim-tatarlariga nisbatan diskriminatsion siyosatini to'xtatishni talab qildi. Rossiya esa o'zining bajarilishi lozim bo'lgan ayrim majburiyatlarini tan olishdan bosh tortdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Sudi Ukrainaning Rossiyaga qo'ygan ayblovlaridan faqat 2014-yilda Moskva tomonidan bosib olingan Qrimda ukrain tilida dars o'tishning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari buzilganidan boshqa barcha da'volarni rad etdi.

Xalqaro Sud O'zbekiston uchun ham xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, xalqaro huquqni mustahkamlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o'rtasidagi chegaraviy masalalar yoki transcagaraviy resurslardan foydalanish bo'yicha nizolar yuzaga kelganda, xalqaro sud orqali ular qonuniy yechim topishi mumkin. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, qadimgi davr xalqaro huquqiga qaraganda hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqi tinchlikni ta'minlashda anchagina samarali ishlayotganining

⁴ Case of Board of Trustees V. Brooks 67 p. 2d4, (Owa 1937).

⁵ <https://zamin.uz/uz/dunyo/126890-bmt-sudi-ukrainaning-rossiyaga-qarshi-2017-yilgi-davolari-aksariyat-qismini-rad-etdi.html>.

isboti deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, xalqaro sud O'zbekiston investitsion muhitini mustahkamlashda, ya'ni xorijiy investorlar bilan bog'liq nizolarni adolatli hal etishda ishonchli vosita hisoblanadi. Xalqaro Sud qaror va maslahatlari O'zbekistonda xalqaro huquqiy madaniyati rivojlantirib, xalqaro shartnomalarga rioya qilish mas'uliyatini oshiradi. Shu tariqa, O'zbekiston xalqaro maydonga moslashuvi tezlashadi va Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligiga hissa qo'shgan bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak tinchlik va adolat yo'lida hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqining o'rni buyukdir. Bugungi kunda u nafaqat davlatlararo nizolarni hal qilishda, balki yangi global tahdidlarga, jumladan, terrorizm, kiberxavfsizlik va ekologik muammolarga qarshi kurashishda ham zaruriy vosita hisoblanadi. Xalqaro huquq barqaror dunyo va insonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. <https://drive.google.com/file/d/1okpdDmz0gyndIElxZASvZcWNdlOJq7du/view>.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/qadimgi-sharqda-xalqaro-munosabatlar-va-diplomatiya>.
3. <https://academic.oup.com/chinesejil/article/21/1/55/6516405>.
4. Case of Board of Trustees V. Brooks 67 p. 2d4, (Owa 1937).
5. <https://zamin.uz/uz/dunyo/126890-bmt-sudi-ukrainaning-rossiyaga-qarshi-2017-yilgi-davolari-aksariyat-qismini-rad-etdi.html>.